

KOMILLIK - O‘ZLIKNI ANGLASH DEMAKDIR

Malikova Sanobar Jizzax shahar 33 –DMTT direktori

Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash, uning milliy o‘zligini anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘langandir. Zero, milliy o‘zlikni anglash hissiyoti milliy g‘ururni oshiradi, millatga sadoqat, o‘tgan buyuk ajdodlar aqlu zakovatiga, meroslariga mos, yangi tarixiy sharoitlarda millatning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga chorlaydi. Milliy o‘zlikni anglash ma’naviyatimiz shakllanish jarayoni ildizlarini idrok etishdan, uning sarchashmalaridan bahramand bo‘lishdan boshlanadi. Zero, o‘zligini anglagan inson, o‘zgalar qadrini anglaydi. Millat, jamiyat, vatan oldidagi mas’uliyatini sezadi. Milliy o‘zligini anglagan millatgina kuchli davlat, kuchli jamiyat barpo eta oladi.

Shuni ta’kidlash joizki, milliy o‘zlikni anglash masalasi juda ko‘plab olimlarni, mutaxassislarni o‘ziga jalb etib kelgan. Shu bois, bu masala yuzasidan xilma-xil fikrlar o‘rtaga tashlangan. Sobiq ittifoq davrida esa, bu masala yuzaki “o‘rganilib”, chuqurroq o‘rganish hatto man etilgan. Chunki, milliy o‘zlikni anglash masalasini chuqurroq o‘rganish kommunistik mafkuraga, siyosatga butunlay zid bo‘lib qolishi mumkin edi.

Milliy o‘zlikni anglash tushunchasi, shu millatga mansub bo‘lgan har bir shaxsga, hamda bir millatga tegishli bo‘lishi mumkin.

IX-XI asrlarda buyuk bobolarimiz Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg‘oniy va boshqalar ilmu fani taraqqiyotiga ulkan xissalari bilan, butun jaxon sivilizatsiyasiga asos yaratib berganlar. Keyingi renesans buyuk soxibqiron bobomiz Amir Temur va temuriylar davrida yuzaga kelgan. Bu davrda ham jaxon fani va madaniyati rivojiga katta xissa qo‘shdilar ayniqsa, astronomiya, arxitektura, hunarmandlik, irrigatsiya, dehqonchilik madaniyati, davlat boshqaruvi boshqa ko‘plab sohalarda jaxonga o‘rnak bo‘lganlar. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga, ya’ni har xil millatlarning o‘zaro

iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalari orqali amalga oshirilmoqda. Bunga asosiy sabab, kishilarning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi ilmu-fanning rivojlanishi oqibatida o'zgardi, bilim doirasi kengaydi. Insoniyat o'zi yuzaga keltirgan umumbashariy muammolarning yechimini, yoki uning ta'sir doirasini yengillatish ustida bosh qotirmoqda. Yer yuzinig qaysi burchagida paydo bo'lgan muammo, o'sha millat yoki davlatniki emas, balki xalqaro muammoga aylanmoqda. Yoki bo'lmasa, aksincha, biron bir millatning, davlatning taraqqiyoti boshqa bir davlatning ham taraqqiyotiga sabab bo'lmoqda. Bir so'z bilan aytganda, yer yuzi insoniyatning umumiy uyiga aylandi. Mana shunday davrda, har qaysi davlat insoniyat oldida turgan muammolarni hal etishda qanday hissa qo'shayotganligi bilan dunyoga taniladi.

Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma'naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik asosida yuz bergan. Islom halollik va to'g'rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo'ygan. "Ilm izlab Chinga bo'lsa da, bor", "Sendan harakat — mendan barakat", "Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun" va ko'plab shu kabi hadislar, naqllar ajdodlarimizning ijtimoiy mo'ljaliga aylangan edi.

Baytul hikma"da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o'g'irgan. Bundan tashqari, lotin, suryoniy, ibroniy tillardan tarjimonlar bo'lgan. Ilmiy haqiqat diniy mansublikdan ustun qo'yilgan. Ajdodlarimiz til o'rganib, ilm ortidan dunyoni kezgan. Mahdudlik qobig'iga o'ralib qolmagan, turg'unlik, mahalliychilik ularga yot bo'lgan. "Baytul hikma", Xorazm Ma'mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o'sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunasi.

Har bir avlod o'z davri taraqqiyotiga mos holda o'z millati tarixining ibtidosini anglab, o'ziga xos hususiyatlarining, urf-odatlarining, manfaatlarining, qadriyatlarining xarakterini va ruhiyatini davom ettiradi. Bu demak, milliylikning-milliy o'zlikni anglashning davomiyligini ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, har qaysi millatning milliy o'zligini anglash jarayoni va uning davomiyligi konkret tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, hammasi bir xil kechmaydi. Hatto, har xil davlatda, kishilik jamiyatida yashayotgan bir xil millat vakillarining milliy o'zlikni anglash jarayonida, ma'lum bir umumiylik bo'lsada, har xil bo'lishi mumkin. Misol uchun, o'zbek xalqining milliy o'zlikni anglash jarayoni xonliklar davrida, sobiq ittifoq davrida va milliy mustaqillikka erishilgandan keyingi davrda bir - biridan keskin farq qiladi. Yoki O'zbekiston hududidan chetda yashayotgan o'zbeklarda bu jarayon bizning yurtimizdagiga nisbatan boshqacharoq bo'lishi mumkin. Ularda milliy o'zlikni anglash jarayonini bobolar Vatani bilan faxrlanish, unga intilish, uni hurmat qilish kabi hissiyotlar yuzaga keltiradi, vaholanki, ularning o'zlari ham, otalari ham o'sha chet mamlakatda tug'ilgan bo'lsalarda.

Insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun esa, o'zlari ham taraqqiyot bosqichining ma'lum bir pog'onasiga erishgan bo'lishlari kerak. Ona diyorumiz-shu ikki daryo oralig'ida yashab ijod etgan, ilmu fanni rivojlantirib, uni amalda qo'llab, dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissani qo'shgan buyuk alloma bobolarimiz faoliyati millatimiz tarixiy taraqqiyotidan nishona emasmi? Buyuk ajdodlarimiz ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni rivojlantirib, ularni hayotda qo'lladilar. Islom dini ham o'zining rivojini shu ona zaminda topdi. Dunyoviy bilimlardan biron- bir soha qolmadiki, ular shug'ullanmasa yoki poyoniga yetmasa, hech qaysi yurtda bizdagidek ko'p alloma chiqmagan. Axir, ular ham ma'lum bir muhitda yashaganku. Yoki, ko'hna Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarimizning 2500- 3000 yillardan beri ko'kka bo'y cho'zib turishi millatimiz taraqqiyotining mahsuli emasmi? Millatning milliy o'zligini anglashining muhim omillaridan yana biri tarixiy hotira bo'lib hisoblanadi.

Insoniyat hali yer yuzining biron bir joyida tarixni yo'qqa chiqarishning yuqoridagi vahshiyona usulini o'ylab topgan emas. Natijada, buyuk bobolarimizning jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shganligini unutayozdik. Ular haqida yuzaki tushunchalarga ega edik, eng achinarlisi ularning shu millat vakili ekanligini ongimizdan siqib chiqarishdi va soxtalashtirilgan, tarix asosida

buyuk bobolarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyaladilar. Shuning uchun ham xalqimizning haqqoniy tarixini bilishi benihoya muhim ahamiyat kasb etib turibdi. Prezidentimiz bu haqda bir necha bor ta'kidladilar va tarixchi olimlar va mutaxassislar oldidagi aniq vazifalarni belgilab berdilar. Hozirgi vaqtda bu sohada keng ko'lamli ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Milliy o'zlikni anglashning yana bir omili, insonlarning intilishi, dunyoqarashidir. Bu omil yuqorida ta'kidlangan omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, u shu omillar orqali yuzaga keladi va ma'lum tarixiy shart- sharoitlarda real kuchga aylanadi. Real kuchga aylangandan keyin esa, millatning hamma tabaqalarini qamrab olib, boshqa omillarni ham yanada kengroq, yanada chuqurroq bo'lishini, ya'ni davomiylikni talab qilib boraveradi. Xo'sh, buning uchun qanday shart-sharoitlar yuzaga kelishi kerak? Birinchidan, bir millatning tarixi, urf-odatlar, qadriyatlar, obro'-e'tibori boshqa bir millatning vakillari tomonidan olib borilgan shovinistik siyosat natijasida kamsitilsa, poymol qilinsa yoki milliy anglash jarayoni omillaridan birontasida nomutanosiblik yuzaga kelsa, bunday paytda kishilar o'rtasida ma'lum bir noroziliklar yuzaga kelib, keng jamoatchilikning fikri shakllanadi. Ikkinchidan, buni harakatga keltiruvchi kuch yuzaga kelishi kerak. Juda ko'p narsa, mana shu harakatga keltiruvchi kuchga bog'liqdir.

Hozirgi davrda milliy o'zlikni anglash jarayoni yanada chuqurlashib bormoqda. Bu hissiyot aholining barcha qatlamlarini qamrab olgan. Bir tomondan, millatimizning haqqoniy tarixini tiklab, xalqimizga yetkazish, ajdodlar qadriyatlariga sadoqat, ularni yuzaga chiqarib, milliy g'ururni shakllantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, mana shu ajdodlar ruhiga mos holda adolatli jamiyat qurish, buyuk kelajak sari dadil olg'a qadam tashlab, milliy o'zlikni anglashning davomiyligini ta'minlash juda muhim vazifa bo'lib turibdi.

Xalqimizning ongida, tafakkurida milliy o'zlikni anglash hissiyoti va uning davomiyligi qanchalik keng qamrovli bo'lsa, shunchalik ma'naviy barkamol insonni tarbiyalagan bo'lamiz. Shu o'rinda hayotimizda hali uchrab kelayotgan loqaydlik, beparvolik, o'zi bo'larchilik kabi eski asoratlardan voz kechish, bu

muqaddas zamin mening Vatanim, ajdodlarimning hoki yotgan bu tuproqni himoya qilish uchun so'ngi tomchi qonim qolguncha kurashishga tayyorman va uning taraqqiyotiga o'zimning munosib hissamni qo'shishim shart, degan tushunchani shakllantira olish kerak.